



Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti kafedrası*

*o'qituvchisi*

Boyqulov Javohir Asqarali o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs*

*talabasi*

Akramov Alisher Murtozoqul o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs*

*talabasi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, talim oluvchining faolligi, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, kreativlikni rivojlantirish bayon etilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье раскрыта сущность творчества, термин творчество, социальные факторы, влияющие на развитие творческих качеств, активность учащихся, пути и формы формирования критического и творческого мышления у учащихся, развитие творческих способностей.*

**Abstract:** *This article describes the essence of creativity, the term creativity, social factors affecting the development of creativity qualities, student activity, ways and forms of forming critical and creative thinking in students, and the development of creativity.*

**Kalit so'zlar:** *Kreativlik mohiyati, PISA baholash dasturi, ta'lim oluvchilar, kreativlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta'lim beruvchi, ta'lim.*

**Ключевые слова:** *Сущность творчества, программа оценки PISA, учащиеся, креативность, способности, инновации в интерактивных методах, учитель, образование.*

**Keywords:** *The essence of creativity, PISA assessment program, learners, creativity, ability, interactive methods innovation, teacher, education.*

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning

aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'lgan hisoblanadi.. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qila olish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatgan:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Ta'lim oluvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Kreativlik ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki ta'lim oluvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, bunday ta'lim beruvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi. Turli xil muammoni ta'lim oluvchining o'zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda ta'lim oluvchining kreativlik salohiyati shakllanadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Kreativ salohiyat tushunchasi murakkab va serqirradir. Kreativlik ta'lim oluvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u ta'lim oluvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirishi va o'zining kundalik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi bilan bog'liqdir. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik" . A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritgan<sup>22</sup>. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni

1. <sup>22</sup><https://www.researchgate.net/publication/358667424> Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish

o'z ichiga oladi. Kreativlik – ta'lim oluvchida yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Ta'lim oluvchining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik ta'lim oluvchining yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlilikni belgilab beradi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellektintuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqdir. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi ta'lim oluvchilar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi talim oluvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga toborabmurakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta'lim oluvchilar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash ta'lim oluvchining ta'lim olish hodisalarini, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etishni qo'llab quvvatlaydi. Ta'lim oluvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Ta'lim oluvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish va barcha ijodiy salohiyatini, shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur hisoblanadi. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan ta'lim oluvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, aqliy salohiyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim oluvchilar o'zini erkin seza

oladigan o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talim oluvchilar ongida yuz berayotgan jarayonning faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetka chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab quvatlaydi<sup>23</sup>. Ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga berayotgan kreativ g'oyalarga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga egadir. Mazkur elementlarning barchasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi munosabatining muhim qismi bo'lib ta'lim oluvchi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun ta'lim oluvchilarni qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash; talim oluvchilarga kreativlik muvozanatsiz hissini yuzaga keltirishni anglatish, bezovtalik va qo'rquv hissidan halos bo'lishga yordam berish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish hamda yo'l yoriq ko'rsatish; ta'lim oluvchini suhbat orqali rag'batlantirish, konstruktiv sharxlar bilan ta'minlash, yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish; ta'lim oluvchilar o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari, guruhlarda ishlay olishlari, xissiy jihatdan ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish lozimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.researchgate.net/publication/358667424> Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish
2. <https://studylib.net/doc/26190950/.nishonbayeva-feruza.ta-lim-oluvchilarda-kreativlikni-riv>

---

2. <sup>23</sup> <https://studylib.net/doc/26190950/.nishonbayeva-feruza.ta-lim-oluvchilarda-kreativlikni-riv>